QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI



# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH ISHLARI

2024-YIL YANVAR-OKTABR OYLARI

# Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi

**2024- yilning yanvar-oktabr oylarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasida jami *6 850,8* mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 106,4 % ni tashkil etdi.**

| Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik korxona va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
|---|---|---|
| **12,5 %** | **53,9 %** | **33,6%** |
| ***858,4*** mlrd so‘m | ***3 692,5*** mlrd so‘m | ***2 299,9*** mlrd so‘m |
| 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan ***135,6 %*** | 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan ***101,6 %*** | 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan ***106,0 %*** |

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 858,4 mlrd so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 135,6 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2,8 % punktga ko‘payib, 12,5 % ni tashkil etdi.

** Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda*

# Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-oktabr oylarida




*Ma’lumot uchun:*

Respublika boyicha eng yuqori qurilish hajmini kórsatgan Nukus shahri 1531,1 mlrd so‘m, o‘sish sur’ati 102,2 %, To‘rtko‘l tumani 554,4 mlrd so‘m va o‘sish sur’ati 106,7 %, Ellikqal’a tumani 417,0 mlrd so‘m, o‘sish sur’ati 110,4 %, Beruniy tumani 355,1 mlrd so‘m, o‘sish sur’ati 106,5 %, Mo‘ynoq tumani 173,2 mlrd so‘m, o‘sish sur’ati 114,9 % ni tashkil etdi.

** Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda*

# Qurilish ishlari, 2024- yil yanvar-oktabr oylari uchun

| | Qurilish ishlari, mlrd so'm | Shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik korxona va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi * | 6 850,8 | 858,4 | 3 692,5 | 2 299,9 |
| Nukus sh. | 1 531,1 | 95,1 | 1 326,2 | 109,8 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Amudaryo | 293,1 | 22,8 | 153,5 | 116,8 |
| Beruniy | 355,1 | 9,2 | 209,8 | 136,1 |
| Bo'zotov | 87,6 | 3,5 | 67,9 | 16,2 |
| Qorao'zak | 62,2 | 9,3 | 39,1 | 13,8 |
| Kegeyli | 88,6 | 27,2 | 45,2 | 16,2 |
| Qo'ng'irot | 315,5 | 166,2 | 115,5 | 33,8 |
| Qonliko'l | 85,8 | 4,0 | 8,7 | 73,1 |
| Mo'ynoq | 173,2 | 117,4 | 36,5 | 19,3 |
| Nukus | 208,4 | 11,3 | 119,6 | 77,5 |
| Taxiatosh | 237,6 | 50,5 | 159,8 | 27,3 |
| Taxtako'pir | 55,0 | 3,6 | 39,7 | 11,7 |
| To'rtko'l | 554,4 | 66,7 | 319,7 | 168,0 |
| Xo'jayli | 215,0 | 3,3 | 158,6 | 53,1 |
| Chimboy | 144,4 | 9,4 | 33,4 | 101,6 |
| Shumanay | 62,2 | 6,7 | 18,4 | 37,1 |
| Ellikqal'a | 417,0 | 40,3 | 299,6 | 77,1 |

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 858,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 135,6 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2,8 % punktga ko'paydi va 12,5 % ni tashkil etdi.

** Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda*

# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




*Ma’lumot uchun:* Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Mo‘ynoq tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 67,8 % i yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 142,9 %), Qo‘ng‘irot tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 52,7 % i yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 232,3 %), Kegeyli tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 30,7 % i yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 375,2 %), va Taxiatosh (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 21,3 % i yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 91,5%) tumaniga to‘g‘ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 53,9 % i to‘g‘ri kelib, 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 2,0 % punktga kamaygan. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 101,6 % ni tashkil etgan holda 3 692,5 mlrd so‘m miqdorida qayd etildi.



## Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da




***Ma’lumot uchun:*** *Joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko‘rsatkichi Nukus shahri (1 326,2 mlrd so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 86,6 %), To‘rtko‘l tumani (319,7 mlrd so‘m yoki 57,7 %) Beruniy tumani (209,8 mlrd so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 59,1 %), ga to‘g‘ri keldi.*

# Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 33,6 % ni tashkil etdi yoki 2 299,9 mlrd so‘m miqdorida qayd etildi. 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 106,0 % ni tashkil etdi.




## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **278,7** mlrd so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **6 572,1** mlrd so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **4,1 %** va **95,9 %** ni tashkil etdi.



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2024- yil yanvar-oktabr oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **78,9** % i yoki **5 402,0** mlrd so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 527,6 mlrd so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 9,8 % ni tashkil etdi.

**9,8 %** — **527,6** mlrd so‘m

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 2776,7 mlrd so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi 51,4 % ni tashkil etdi.

**51,4 %** — **2776,7** mlrd so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 2097,7 mlrd so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 38,8 **%** ni tashkil etdi.

**38,8 %** — **2097,7** mlrd so‘m

## Yillar bo‘yicha yangi qurilish hajmi va ulushi

| 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|---|
| 62,9 % | 64,2 % | 73,6 % | 75,0 % | 76,4 % |
| 2 086,5 mlrd so‘m | 2 564,1 mlrd so‘m | 3 300,3 mlrd so‘m | 3 951,9 mlrd so‘m | 4 062,8 mlrd so‘m |

## Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi bino va inshootlarni qurishga 5 143,0  mlrd so‘m, ulushi 75,1 % ni, fuqarolik obyektlarini qurishga 1 344,8 mlrd so‘m, ulushi  19,6 % ni, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga 363,0 mlrd so‘m va ulushi ulushi 5,3 % ni tashkil etdi




*Ma’lumot uchun:* Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

# Bino va inshootlar qurilishi

*ulushi % da*




Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 7,6 % ni tashkil etdi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,6 % punktga kamayib, 47,7 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 44,7 % ni tashkil etdi.

# Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 31,8 % ni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 11,7 % punktga ko‘paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 68,2 % ni tashkil etdi.

***ulushi % da***



# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 4,0 % punktga kamaydi va 11,5 % ni tashkil etdi. Qolgan, 88,5 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 4,0 % punktga ko‘paydi.




Qoraqalpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi

Aloqa telefoni: *(61) 222-75-91*